

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– may holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat olib borayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilga nisbatan 2,638 taga o'sdi.
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi 1,9 % f.p ga kamaygan.
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni 1,626 taga oshgan.

2018 yilning yanvar-may oyida viloyatda 2028 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 51 taga ko'p.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,8 % ga oshgan hamda ularning soni 402 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,635 (6,3 %) taga o'sgan hamda ularning umumiy soni 27,638 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Farg'ona (18,6 %), Qo'qon (13,8%), Marg'ilon (9,8%) shaharlarida, Uchko'prik (5,1 %) va Dang'ara (4,8 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyun holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Farg'ona viloyati	27638	100,0	27164	98,3
Far'gona sh.	5148	18,6	5049	18,6
Qo'qon sh.	3814	13,8	3760	13,8
Quvasoy sh.	776	2,8	763	2,8
Marg'ilon sh.	2709	9,8	2694	9,9
tumanlar				
Oltiariq	1155	4,2	1148	4,2
Qo'shtepa	911	3,3	898	3,3
Bog'dod	947	3,4	944	3,5
Buvayda	1219	4,4	1197	4,4
Beshariq	849	3,1	836	3,1
Quva	1133	4,1	1109	4,1
Uchko'prik	1426	5,2	1371	5,0
Rishton	842	3,0	815	3,0
So'x	672	2,4	672	2,5
Toshloq	1218	4,4	1194	4,4
O'zbekiston	1237	4,5	1205	4,4
Farg'ona	985	3,6	946	3,5
Dang'ara	1315	4,8	1290	4,7
Furqat	646	2,3	639	2,4
Yozyovon	636	2,3	634	2,3

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat
ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 98,3 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 1,7 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda o'zgarishsiz qoltmoqda.


faoliyat ko'rsatayotganlar faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,3 % savdoda, 21 % sanoatda, 8,1 % qurilishda, 5,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,0 % tashish va saqlash, 3,5 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**




2018 yil yanvar-may holatiga 2028 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,6 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Farg'ona (331 ta), Qo'qon (254 ta), Marg'ilon (164 ta) shaharlarida, Oltiariq (124 ta), Uchko'prik (120 ta) va Buvayda (113 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (41 ta) hamda Qo'shtepa (45 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (543 ta), savdoda (374 ta), qurilishda (183 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (123 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (99 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (46 ta), tashish va saqlashda (72 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (60 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi axborot va aloqada (-0,6 f.p.dan), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (-0,2 f.p.), savdoda (-0,3 f.p.), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,0 f.p) kamayganligi, buning natijasida tashish va saqlashda (+0,1 f.p.), qurilishda (+0,1 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,2 f.p.dan), sanoatda (+1,1 f.p.) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.06.2017 y.	01.06.2018 y.	farqi (+/-)
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	5,4	5,2	-0,2
Sanoat	19,9	21,0	1,1
Qurilish	8,0	8,1	0,1
Savdo	21,6	21,3	-0,3
Tashish va saqlash	3,9	4,0	0,1
Yashash va ovqatlanish	4,3	4,5	0,2
Axborot va aloqa	4,1	3,5	-0,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ximoya	3,4	2,4	-1,0
Boshqa turlar	29,5	29,9	0,4
	100	100	

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyun holatiga 22010 tadan oshiq tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 8282 ta, oilaviy korxonalar – 2441 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10590 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 51 tani va boshqalar 646 tani tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 228 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 53 taga yoki 30,3 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 162 tasi qo'shma korxonalar, 66 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Farg'ona 89 ta (37,6 %), Qo'qon 37 ta (16,7 %), Marg'ilon 16 ta (6,8) shaharlarida, Farg'ona tumanida 13 ta (5,9 %) va Quvasoy shahar 12 ta (5,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 2 ta (0,9 %), Furqat tumani 2 ta (0,9 %), Qo'shtepa tumani 3 ta (1,4 %), Bag'dod tumani 3 ta (1,4 %), Buvayda tumani 3 ta (1,4 %) va Yozyovon tumani 3 ta (1,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyun holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 161 ta (70,6 %), savdoda 26 ta (11,4 %), boshqa turlarida esa 10 ta (4,4 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 2 ta (0,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 4 ta (1,8 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 6 ta (2,3 %), qurilishda 5 ta (2,3 %), tashish va saqlashda 4 ta (1,8 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 10 ta (4,4 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2018 yilning yanvar-may oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 25 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga ko'paygan yoki 31,6 foizga oshgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 17 ta, savdoda 6 ta, sog'liqni saqlashda 1 ta va qurilishda 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyun holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 21,9 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 may holatiga qaraganda 10,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4153 tasi (19 %) Farg'ona, 3242 tasi (14,8 %) Qo'qon, 2372 tasi (10,8 %) Marg'ilon shaharlariga, 1183 tasi (5,4 %) Uch-ko'prik va 1101 tasi (5,1 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 21,9 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 5866 tasi (26,8%) – savdoda, 5754 tasi (26,3 %) - sanoatda, 2230 tasi (10,2 %) - qurilishda, 1402 tasi (6,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1241 tasi (5,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1093 tasi (5 %) - tashish va saqlashda, 971 tasi (4,4 %) - axborot va aloqa sohasida, 461 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2844 tasi (13 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-may holatiga 1706 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 8,7 foizga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Farg'ona (303 ta), Qo'qon (215 ta), Marg'ilon (146 ta) shaharlarida, Oltiariq (106 ta) va Buvayda (111 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (29 ta), Beshariq (46 ta) hamda Qo'shtepa (31 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (542 ta), savdoda (374 ta), boshqa turdagi xizmatlar (209 ta), qurilishda (182 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (123 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (99 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (46 ta), tashish va saqlashda (72 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (59 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, %



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyun holatiga 2441 tani tashkil etib, ulardan 2403 tasi yoki 98,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 22,1 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 48,7 % yoki 1190 tasi sanoat, 13,4 % yoki 326 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,4 % yoki 329 tasi savdo, 9,4 % yoki 230 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,3 % yoki 57 tasi tashish va saqlash, 1,3 % yoki 32 tasi axborot va aloqa, 1,3 % yoki 30 tasi qurilish, 0,7 % yoki 18 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,4 % yoki 229 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: E.Ro'ziboyev

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

(0371) 230-87-36